

MALOMATIYLIKNING TARIXIY SHAKLLANISHI VA HOZIRGI ZAMON



Yazdonov Z.Sh.
SamDU dotsenti

Annotasiya: Ushbu maqola Malomatiylik islom tasavvufida o'ziga xos yo'nalish sifatida tanilgan. Bu tariqat o'zini tanqid qilish va insonni botiniy jihatdan poklashga asoslangan falsafiy ta'limotdir. Ushbu maqola malomatiylikning tarixiy ildizlari, uning rivojlanish jarayoni hamda asosiy g'oyalari tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: tariqat, nafs, poklik axloq, odob, odat, urf, ilhom.

Malomatiylik IX asrda Xuroson hududida shakllangan sufiylik maktablaridan biri sifatida ko'rinish beradi. Ushbu tariqatning asosiy g'oyasi insonning o'zini jamiyatdan yashirgan holda, Alloh oldida ma'naviy kamolotga erishishidir. Malomatiylar o'zlarining ruhiy tajribalari orqali o'zlarini gunohkor va ojiz inson sifatida ko'rsatishgan. Malomatiylikning dastlabki ildizlari IX asrda Xuroson mintaqasida paydo bo'lgan. Ushbu tariqatning asosiy g'oyasi insonni jamiyatdan yashirgan holda Allohga ma'naviy yaqinlikka erishish edi [1.313]. Dastlabki malomatiylar o'zlarini ruhiy poklanish va kamolotga erishish yo'lida jamiyat tomonidan qoralangan yoki rad etilgan holatda ko'rsatishni afzal ko'rishgan.

Malomatiylar insonning ichki dunyosini tozalashga e'tibor berib, tashqi ko'rinish va ijtimoiy maqomlarga e'tibor qaratmaslikni ta'kidlaganlar. Ular o'zlarini xalq ko'z o'ngida gunohkor va ojiz qilib ko'rsatish orqali o'z ma'naviy darajalarini pasaytirgan holda, Allohning nazarida poklanishni maqsad qilishgan. Ushbu falsafa, boshqa sufiy tariqatlardan farqli o'laroq, shaxsiy maqtov va e'tibordan qochishga urg'u beradi.

Malomatiylik tariqatida sufiylikning chuqur ta'siri seziladi. Sufizmning bosh maqsadi Allohga yaqinlashish bo'lsa, malomatiylikda bu jarayon insonning o'zini tanqid qilishi va shaxsiy ma'naviyatini baholash orqali kechadi [2.460]. Malomatiylikning boshqa tariqatlarga ta'siri sezilarli darajada bo'lgan, ayniqsa tasavvuf dunyosida. Uning asosiy ta'limoti bo'lgan o'zini rad qilish va nafsqa qarshi kurash g'oyalari boshqa sufiy yo'nalishlar va tariqatlarga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Malomatiylikning ba'zi o'ziga xos jihatlari quyidagi tariqatlarga ta'sir qilgan:

Qalandariylar harakati malomatiylikning ruhiy an'analari va amaliyotlaridan kuchli ta'sirlangan. Qalandariylar ham malomatiylar singari, jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlarini tanqid ostiga olib, o'zlarini past ko'rsatishga va obro'-e'tibordan qochishga intilishgan. Ular o'z hayotlarini bevosita oddiylikka, sayohat qilishga va dunyodan voz kechishga bag'ishlaganlar, bu esa malomatiylikning o'zini chetga olish tamoyillari bilan uyg'un edi.

Naqshbandiy tariqatining ba'zi jihatlari ham malomatiylik ta'sirini o'z ichiga oladi, ayniqsa bu tariqatning dunyoda yashagan holda ichki poklikka erishish g'oyasi bilan bog'liq [5.232]. Naqshbandiylar malomatiylik singari tashqi amallar bilan emas, balki ichki ruhiy poklanish va botiniy ma'naviyatga ko'proq e'tibor qaratganlar.

Ahmad Yassaviy boshchiligidagi Yassaviy tariqatida ham malomatiylarning ta'sirini ko'rish mumkin. Yassaviylar insonning ichki olamiga chuqur kirib borishga, dunyo va nafsdan yuz o'girishga intilganlar. Ahmad Yassaviyning o'zi ham dunyoviy obro' va mavqe uchun emas, balki faqat Alloh uchun xizmat qilishga undagan.

Malomatiylikning asosiy g'oyalari

1. Nafsqa qarshi kurash; malomatiylikning asosiy falsafasi – bu nafsni yengish va insonning botiniy dunyosini tozalashdir. Malomatiylar nafsning vasvasalari bilan kurashish uchun o'zlarini har doim nazorat qilishgan va o'zlarini gunohkor ko'rinishda tasvirlashgan [3.279].

2. O'z-o'zini tanqid qilish; malomatiylarning asosiy usuli – o'zlarini jamiyat oldida tanqid qilish, ammo bu tanqid faqat tashqi ko'rinishda, ichki ma'noda esa ular Allohga yaqinlik va botiniy poklikka erishishni maqsad qilishgan.

Malomatiylik bugungi kunda ko'proq tarixiy-falsafiy maktab sifatida o'rganilmoqda. Uning zamonaviy dunyoqarashdagi o'rni va ta'siri ko'p hollarda boshqa sufiy maktablarining tadqiqotlari bilan birga o'rganiladi. Ba'zi zamonaviy olimlar malomatiylikni insonning ichki dunyosini anglash uchun muhim falsafiy manba deb bilishadi.

Xulosa sifatida malomatiylikning tarixiy ildizlari va rivojlanishi haqida ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bu tariqat insonning o'z-o'zini tanqid qilish va poklanishga qaratilgan chuqur falsafiy ta'limotdir. Malomatiylar o'z zamonalarida katta ta'sir ko'rsatgan va ularning g'oyalari hozirgi kunga qadar dolzarb bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar

1. Islom. Ensiklopediya.T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2003.-B. 313.
2. Karimov S. Sharq ijtimoiy tafakkuri tarixidan. Toshkent, «Faylasuflar milliy jamiyati». 2016.-B.460.
3. Каримов Э. Кубравский вакв XVII-XIX вв.: письменные источники по истории суфийского братства Кубрава в Средней Азии – Т., 2008. 279 стр.
4. Muhammad Porso «Faslul-xitob». Qo'lyozma. –Buxoro: Kogon, naqshbandiya tariqati muzeyi fondi. Inv.42.1443.774.b.
5. Navro'zova G.N. Naqshbandiya tasavvufiy ta'limoti va barkamol inson tarbiyasi. T.: Fan, 2005. 232 b.